

MATNDAGI PARALLEL BOG‘LANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Utemuratova Gulzira Bazarbaevna,

*O‘zR Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot instituti
tayanch doktranti*

G-mail: utemuratovagulzira11@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada qoraqalpog‘ tilidagi badiiy matnlarda gaplar o‘rtasidagi bog‘lanish turlari va ularning matn yaxlitligini ta‘minlashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida matn komponentlari o‘rtasidagi bog‘lanishning asosiy ikki turi — ketma-ket (zanjirli) va parallel bog‘lanish ajratib ko‘rsatildi. Shuningdek, parallel bog‘lanishning grammatik va semantik xususiyatlari, uning badiiy matn va she‘riy asarlardagi o‘ziga xos qo‘llanilishi tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: gap, matn, murakkab sintaktik butunlik, gaplararo, bog‘lanish, parallel bog‘lanish.

Аннотация. В данной статье анализируются виды связи между предложениями в художественных текстах на каракалпакском языке и их роль в обеспечении целостности текста. В ходе исследования были выделены два основных типа связи между компонентами текста — последовательная (цепная) и параллельная. Также анализируются грамматические и семантические особенности параллельной связи, её специфическое применение в художественных и поэтических произведениях.

Ключевые слова: предложение, текст, сложное синтаксическое целое, межфразовая связь, связь, параллельная связь.

Abstract. This article analyzes the types of connections between sentences in Karakalpak literary texts and their role in ensuring textual integrity. The study identifies two main types of connections between text components: sequential (chain) and parallel connections. Furthermore, the grammatical and semantic features of parallel connection, as well as its specific application in literary texts and poetic works, are examined.

Keywords. sentence, text, complex syntactic unit, inter-sentential, connection, parallel connection.

Kirish. Matn — og‘zaki yoki yozma shaklda ifodalanadigan nutqiy birlik bo‘lib, u ma‘noviy va tuzilish jihatdan yaxlitligi hamda muayyan kommunikativ maqsadga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Matn faqat oddiy gaplar ketma-ketligi emas, balki semantik va sintaktik jihatdan o‘zaro bog‘langan gaplar tizimidir. Agar matn tarkibiy qismlari o‘rtasida mazmuniy va shakliy bog‘liqlik bo‘lmasa, uni to‘laqonli matn deb bo‘lmaydi. Matndagi gaplarning o‘zaro bog‘lanishi matnning mazmunan yaxlit va izchil bo‘lishini ta‘minlaydi, fikrning aniq va ravon ifodalanishiga xizmat qiladi. Shu sababli matn komponentlari o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganish matn lingvistikasining asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish jarayonida MSB tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘lanishi masalasida yagona ilmiy fikr mavjud emasligini kuzatamiz. Ammo, tadqiqotchilar orasida G. Ya. Solganik tomonidan ilgari surilgan “zanjirli” va “parallel” bog‘lanish haqidagi qarash keng ommalashgan.[5] Uning fikrlarini A. I. Domashnev, I. P. Shishkina hamda E. A. Goncharovalardan iborat mualliflar jamoasi ham to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi.[3]

Z.A. Aldaeva[1,50] va V. A. Yuzifovich [8] birdek fikirda, ular murakkab sintaktik butunlikdagi gaplar o'rtasidagi aloqaning quyidagisha uch turini ajratib ko'rsatadi: цепную связь, параллельную связь, присоединительную связь.

M.Hakimov o'z ilmiy ishida ilmiy matndagi sintaktik bog'lanish turlarini tahlil qilib, jumladan, zanjirli va parallel bog'lanishning o'ziga xos xususiyatlarini ham yoritadi. Uning ta'kidlashicha, parallel bog'lanishda gaplar bir umumiy mavzu atrofida birlashadi, biroq gaplar boshqa gaplarga munosabati jihatdan o'z avtonomligini (alohidaligini) saqlaydi.[4.70]

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qoraqalpoq tilidagi badiiy matnlarda parallel bog'lanish xususiyatlarini o'rganishda tavsifiy-analitik, qiyosiy va struktur-semantik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tavsifiy-analitik metod orqali matndagi gaplararo bog'lanish turlari aniqlanib, ularning lingvistik xususiyatlari yoritildi. Qiyosiy tahlil yordamida parallel va ketma-ket (zanjirli) bog'lanish o'zaro solishtirildi. Struktur-semantik yondashuv esa gaplar o'rtasidagi grammatik va mazmuniy munosabatlarni ochib berishga xizmat qildi.

Tahlillar va natijalar. Ketma-ket (zanjirli) bog'lanish MSBdagi gaplarni o'zaro bog'lashda keng qo'llaniladi. Asosan matn shu usulda tuziladi. Ketma-ket (zanjirli) bog'lanish fikrning izchil ketma-ket rivojlanishini aks ettiradi, shuning uchun ketma-ket bog'lanish tabiatan dinamik hisoblanadi. Bundan tashqari, gaplarni bir semantik-sintaktik butunlikka birlashtirishning yana bir turi - parallel bog'lanishdir. Bu usul orqali bog'langan gaplarning sintaktik tuzilishi parallelligi bilan tavsiflanadi va fikrlarning o'zaro parallel bog'lanishini aks ettiradi. Parallel aloqada gaplar bir-biri bilan zanjir tarzida bog'lanmaydi, aksincha, ular o'zaro taqqoslanadi yoki qarama-qarshi qo'yiladi.


MSB tarkibidagi gaplar orasidagi parallel bog'lanish ham ketma-ket (zanjirli) bog'lanish kabi o'zaro bog'langan gaplarning muayyan munosabatiga (mosligiga) asoslanadi lekin parallel bog'lanish ketma-ket (zanjirli) bog'lanishdan o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Ketma-ket (zanjirli) bog'lanishda keyingi gap oldingi gapning biror bo'lagi (takror, olmosh, sinonim) orqali davom ettiriladi. Bunda har bir yangi gap oldingi gapga tayangan holda mazmunni bosqichma-bosqich rivojlantirib boradi. Parallel bog'lanish esa gaplarning bir xil yoki o'xshash tuzilishida ko'rinadi: gaplar grammatik tuzilishi jihatidan bir xil bo'lib, so'z tartibi ham bir xil, gap bo'laklari ham bir xil grammatik shakllar orqali ifodalanadi. *Masalan, Misali, Shij'irgan issi, lekin awil arasi tinimsiz. Mal jetelegenler, eshek mingenler, alisiraqta tuyeliler, atlilar olay-bulay otip turipti. Analariniñ etegine oralğan jalañash balalar qoñızday juwirısadı. Dorba asınğan qosaq-qosaq jaslar, kempir-ğarrılar bir-birine baylangan sıyaqlı bir tayaqtıñ eki ushınan uslasıp otip turipti.*

Bunday korinislerge kózi úyrenisip qalğanlıqtan onsha elestire bermeytuğın shayıq búgin basqasha keyipte. (T. Qayıpbergenov «Maman biy ápsanası» 21-bet). Birinchi gapda "Shij'irgan issi, lekin awil arasi tinimsiz" degan jumla orqali umumiy holat tasvirlanadi.

Ya'ni, havo juda issiq bo'lsa-da, qishloq hayoti tinmayotgani, odamlar harakatda ekani ifodalanadi. Bu gap keyingi barcha tasvirlarning mazmuniy markazi hisoblanadi. Keyingi gaplarda esa shu umumiy fikr turli detallar yordamida ochib beriladi, qishloqdagi turli odamlarning harakati sanab o'tiladi. Bu tasvir gavjumlikni kuchaytiradi. Matndagi gaplarda parallel bog'lanish quyidagi jihatlar orqali yuzaga kelgan: sanash ohangi kuchli, so'z tartibi bir xil usulda tashkil etilgan, kesimlar o'xshash shaklda kelgan. Eng so'nggi gap esa sinsemantik gap bo'lib, avvalgi gaplar bilan zanjir tarzida bog'langan va MSBning tugallanma qismini shakllantirgan.

Qoraqalpoq tilidagi badiiy matnlarni tahlil qilish orqali, matnda parallel bog'lanish ketma-ket (zanjirli) bog'lanishga nisbatan kam uchrashini ko'rdik. Parallel bog'lanish orqali murakkab sintaktik butunlikka birlashgan gaplar mazmun jihatidan nisbatan mustaqil bo'lib, kontekstga kamroq bog'liq bo'ladi.

Parallel bog'lanish quyidagicha ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. (Yuqorida keltirilgan misollarga asoslanib)



Yuqorida berilgan chizmaga asoslanib parallel bog'lanishda ikkinchi, uchinchi va undan keyingi gaplarning birinchi gapga teng darajada bo'ysunib bog'langanini kuzatamiz.

Komponentlari o'zaro parallel bog'langan matnlarda odatda asosiy mavzu birinchi gapda beriladi va ushbu gapda matnning umumiy mazmuni, umumiy tasviri, umumiy manzarasi (kartina) aks etadi. Keyingi gaplar esa shu manzarani (kartina) turli tasviriy detallar orqali boyitib, toldiriadi va konkretlashtiadi.

Masalan, *Jazgi tun. Onsha qatti samal bolmasa da, osimlikler bir-birine aste qaqligisip terbeledi. Mayda kok shopler japiraqlarina qongan shiq tamshilarin awirlap, baslarin iyip mawjiramaqta. Janá gana ashq aspanda, qapelimde, bult padalari koringe basladi ham shiqli hawa ızgarlanıp, aysız tunde kem-kem qarańgılasa berdi. I.Yusupov «Garrı tuttađı gúz» 38-bet*). Bu misolda asosan parallel bog'lanish mavjud. Shunku har bir gap tabiat manzarasining alohida holatini tasvirlaydi. Gaplar bir-biriga zanjirsimon ulanib ketmaydi, balki yonma-yon joylashgan tasvirlarni beradi. Matnning birinchi gapi — “Jazgi tun” — umumiy mavzuni belgilab beradi. Keyingi barcha gaplar birinchi gap bilan ma'no va grammatik jihatdan bog'lanib, shu tarzda matnning umumiy mavzusini to'liq tavsiflab konkretlashtirgan.

Ba'zi tilshunos olimlar bu bog'lanish turini ajratib ko'rsatishni zarur deb hisoblamaydi, chunki tuzilishining parallelligi bilan ajralib turadigan avtosemantik gaplar

ularning fikricha "superfrazali birliklarni" hosil qilmaydi.[7.12-14] [6.40-42] Bu holda ular matnning alohida tarkibiy birligi haqida soʻz yuritadilar va uni "mazmuniy parallellik asosida birlashgan gaplar guruhi" deb taʼriflaydilar.[6.45]

L. P. Vodyasova esa parallel bogʻlanishli gaplarni murakkab sintaktik butunlik (MSB) tasnifidan chiqarib tashlamaslik kerakligini taʼkidlaydi. Uning fikricha, bunday birliklar MSBning barcha belgilariga toʻliq ega boʻlmasligi mumkin, biroq ular semantik jihatdan yaxlit bir butunlikni tashkil etadi. Mazkur birlik tarkibidagi qismlar butunga nisbatan bir xil munosabatda boʻlib, uning mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Ayrim gaplarni tushirib qoldirish mumkin boʻlsa-da, bu holat tasvirning biroz kambagʻallashishiga olib keladi, biroq umumiy maʼno hamda formal tuzilishga jiddiy taʼsir koʻrsatmaydi. Yana L. P. Vodyasova MSB tarkibida boshlanma va tugallanmaning alohida oʻrni borligini ham taʼkidlaydi. Uning fikricha, boshlanma zaruriy boʻlib, uni tushirib qoldirib boʻlmaydi, chunki u koʻpincha keyingi tasvir va tafsilotlar uchun asos vazifasini bajaradi va matnning boshlanishini belgilaydi. Tugallanma esa aksincha, oldingi qismlarda berilgan barcha tafsilotlarni birlashtirib, ularni umumlashtiradi hamda murakkab sintaktik butunlikning quyi chegarasini belgilaydi.[2.111] Biz L. P. Vodyasovanning fikriga qoʻshilgan holda shuni taʼkidlashimiz mumkinki, parallel bogʻlanishli gaplar guruhi ham MSB doirasida koʻrib chiqilishi lozim. Quyidagi matn bunga misol boʻla oladi. *Masalan, Kózge túrtse kórgisiz qarańǵı tún. Aldındaǵı altı adım jerdegi náirse anıq kórinbeydi. Aspandı tunjıraǵan qara bult basqan. Ay menen talasqanday bolıp jiltırap turatúǵın juldızlardıń da búgin beti perdelengen. Adam gúzar jol menen júrmese, adasıp aylanıp ornına keletúǵın.* (M. Dáribaev "Mıńlardıń biri" povesti, 74-bet). Bu pragmentning barcha komponentlari bitta kommunikativ maqsadga – "qarańǵı tún" manzarasini tasvirlashga qaratilgan. Oʻquvchi bu holat haqida "kózge túrtse kórgisiz qarańǵı tún" degan dastlabki boshlanma vazifasidagi gapning oʻzidayoq xabardor boʻladi, yaʼni atrofni qorongʻulik qoplaganini tushunadi. Keyingi gaplarda sutkaning shu qismiga xos belgilar har bir avtosemantik gap orqali toʻldirilib, umumiy manzarani ochib beradi. Butunlikdagi tugallanma vazifasidagi soʻnggi gap orqali inson harakati bilan bogʻliq holat keltirilgan boʻlib, oldingi gapda berilgan fikrlarni mantiqiy jihatdan yakunlaydi, MSBning quyi shegarasini belgilaydi. Shunday qilib, yaxlitlikdagi barcha gaplar oʻzaro bir bir mavzu atrofida birlashib, bir MSBni tashkil etadi.

Komponentlari parallel bogʻlangan matnlarda, badiiy soʻzning taʼsirchanligi, ohangdorligi va hissiy ifodaliligi boshqa matnlardagiga nisbatan koʻproq kuzatiladi. Parallel tuzilish orqali misralar oʻzaro uygʻunlashib, fikrning taʼsir kuchi oshadi va bunday matnlarning emotivligi va ekspressivligi komponentlari ketma-ket (zanjirli) bogʻlangan matnlardan farq qiladi. Shu sababli bolsa kerak, parallel bogʻlanish sheʼriy asarlada koʻproq uchraydi.

Masalan, *Sálem, jayhun jaslıq jıllar ótken jer,*
Sálem, maǵan güller inam etken jer,

*Sálem, qiyalima qanat pitken jer,
Shiqqan shańarađın, ósken shańlađım.*

*Sálem jigit bolıp, esim engen jer,
Qıńırlıqtıń barlıđına kóngen jer,
Búgin xóshirey qızday qulpı dóngen jer,
Shiqqan shańarađım, ósken shańlađım. (Á.Ájiniyazov “Amanat” 6-bet).*

Xulosa. Qoraqalpoq tilidagi badiiy matnlarni tahlil qilish natijasida matn komponentlari o‘rtasidagi bog‘lanishning asosiy ikki turi — ketma-ket(zanjirli) va parallel bog‘lanish mavjudligi aniqlandi. Ketma-ket (zanjirli) bog‘lanish fikrning ketma-ket izchil rivojlanishini ta‘minlasa, parallel bog‘lanishda gaplar grammatik jihatdan o‘xshash shaklda tuzilib, bir mavzuning turli belgilarini yonma-yon tasvirleydi. Shuningdek, parallel bog‘langan matnlarda komponentlarning nisbatan mustaqilligi kuzatiladi, biroq ular umumiy kommunikativ maqsad asosida bir butunlikni tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алдаева З.А. Способы и средства связи компонентов сложного синтаксического целого в кумыкском языке: дис... канд. филол. наук: 10.02.02. - Махачкала, 2008. - 163 с.
2. Водясова Л. П. Сложное синтаксическое целое в современном эрзянском языке: дис... док. филол. наук: 10.02.22. –Йошкар-Ола, 2001 — С. 111.
3. Домашнев А.И., Шишкина И.П., Гончарова Е.А. Интерпретация художественного текста: Немецкий язык: Учебное пособие для студентов пед. ин-тов по спец. № 2103 “Иностранный язык”. 2-ое изд., дораб. - М.: Просвещение, 1989. - 208 с.
4. Ҳакимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. н-ди...дисс. Тошкент, 1993.
5. Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика. -М.:Высшая школа, 1973.-216
6. Ушаков Г.А. Научные основы методики развития связной речи учащихся при изучении морфологии удмуртского языка: Дис... доктора филол.наук. -М., 1991, -439 с.
7. Зарубина Н.Д. Методика обучения речи. -М.:Русский язык,1977, -48
8. Юзифович В. А. О синтаксических средствах связи в очерке Е. Богата «Семейная реликвия» // Медиалингвистика. 2014. № 3. С. 176–179.